



## BARQAROR RIVOJLANISHNING DOLZARB JIHATLARI

**Tangirov Nizom Abduraxmonovich**

Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti

Email: [nizom\\_tangirov@mail.ru](mailto:nizom_tangirov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada barqaror rivojlanish g'oyasining nazariy-amaliy ahamiyati falsafiy tahlil etilgan. Barqaror rivojlanish g'oyasi hozirgi kunda global muammolar tizimini o'rganish va o'rgatishning samaradorligini oshirishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, ekologiya, global muammolar, biosfera, hayot, nosferaviy taraqqiyot.

**Аннотация:** В данной статье философски анализируется теоретическое и практическое значение идеи устойчивого развития. Идея устойчивого развития в настоящее время имеет важное методологическое значение в повышении эффективности изучения и преподавания системы глобальных проблем.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, экология, глобальные проблемы, биосфера, жизнь, несферическое развитие.

**Annotation:** This article philosophically analyzes the theoretical and practical significance of the idea of sustainable development. The idea of sustainable development currently has important methodological significance in increasing the efficiency of studying and teaching the system of global problems.

**Key words:** sustainable development, ecology, global problems, biosphere, life, non-spherical development.

Bugungi kunda global muammolar tizimini o'rganish va o'rgatishning samaradorligini oshirishda barqaror rivojlanish nazariyalarni chuqur tadqiq etish ahamiyatli. Insoniyatning barqaror rivojlanishi g'oyalari global muammolarning o'tkirlashishi bilan bog'liq ravishda 1960–1970-yillardan boshlab dolzarblashib bormoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1992 yilda Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT Konferensiyasida ma'qullangan. Unda sayyora ifloslanishi, resurslar qisqarishi muammosini hal qilish, bir so'z bilan aytganda, kelgusi avlodlar uchun sayyoraning ekologik salohiyatini tiklash ko'zda tutilgan. Lekin, barqaror rivojlanishi g'oyalari faqat mazkur vaqtda paydo bo'lgan emas.

Dastlab, global muammolarga e'tibor 1962 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Iqtisodiy rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish" rezolyutsiyasida qabul qilindi, yana 10 yildan so'ng, ya'ni 1972 yilda 113 ta mamlakat vakillari atrof-muhit bo'yicha Stokgolm konferensiyasida atrof-muhit bo'yicha birinchi jahon uchrashuvida yana mazkur masalada yig'ildilar. 1983 yilda BMT Bosh kotibi tashabbusiga ko'ra



Norvegiya bosh vaziri Gru Xarlem Brundtland (Gru Xarlem Bruntland (1939 yil tugʻilgan) norvegiyalik jamoatchi va siyosiy arbob, 1981-1996 yillar oʻrtasida uch muddatda Norvegiya Bosh vaziri, 1974-1979 yillarda Norvegiya atrof-muhit vaziri. 1998-2003 yillarda Jahon Sogʻliqni saqlash tashkiloti Bosh direktori lavozimida ishlagan. 2007 yil 1 maydan BMT Bosh kotibining iqlim oʻzgarishi boʻyicha maxsus vakili. Gru Xarlem Bruntland ayol kishi boʻlishiga qaramasdan global muammolarni oldini olishga jonbozlik koʻrsatib kelgan. Shu jihatdan uning hurmatiga Brundtland komissiyasi uning nomi bilan atalgan) boshchiligida Atrof-muhit va rivojlanish boʻyicha xalqaro komissiya (AMRXX) tashkil etildi.

“Barqaror rivojlanish” (“sustainable development”) tushunchasining aksariyat talqinlari G.X. Brundtland Komissiyasi tomonidan berilgan taʼrifga asoslanib, uni haqli ravishda klassik termin deyish mumkin. Bunda iqtisodiyotning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlash insonning atrof-muhit (biosfera) bilan oʻzaro harakatda rivojlanishi bilan qay darajada kelishilganligiga bogʻliq. Makro-mezo- va mikro darajada ijtimoiy ekologik-iqtisodiy tizimlar barqaror rivojlanishiga oʻtish – umuman, iqtisodiyot, soha, korxonada yangi huquqiy normalar, yangi boshqaruv tizimini talab etadi. Maʼlumki, 1980-yillarga kelib ekologik muammolar koʻp hollarda mintaqaviy muammolarga aylangan boʻlsa, 1990-yillarda kelib ekologik muammolar global darajaga chiqdi va bu quyidagi salbiy tendensiyalarda namoyon boʻlmoqda:

– dunyoda tiklanadigan deb hisoblangan resurslar (tropik oʻrmonlar, baliq resurslari va boshq.) oʻzini tiklashga ulgurmayapti;

– jahon ekotizimi buzilishi roʻy bermoqda, tobora koʻp flora va fauna vakillari butunlay yoʻq boʻlmoqda, natijada tabiatdagi ekologik muvozanat buzilmoqda;

– iqlimning ehtimolli oʻzgarishi eng murakkab va eng xavfli muammoga aylanmoqda. U oʻrtacha harorat oʻsishida ifodalanib, natijada ekstremal tabiiy-iqlim hodisalari: qurgʻoqchiliklar, toshqinlar, quyunlar, keskin eruvgarchilik va ayozlar qaytarilishi va intensivligi oʻsishiga olib kelmoqda va bular tabiat, inson hamda mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada iqtisodiy zarar yetkazmoqda.[1.96-97]

Xalqaro komissiyaning “Bizning umumiy kelajagimiz” nomli hisobotida insoniyat oʻzining iqtisodiy faoliyatida koʻp narsalarni oʻzgartirishi kerakligi, chunki



aks holda uni juda og‘ir sinovlar va atrof-muhit keskin yomonlashuvi kutayotganligi haqida ogohlantirish e‘lon qilindi. Komissiya iqtisodiyot o‘shishi sayyoraning ekologik imkoniyatlari chegarasidan chetga chiqmasligi kerak, deb ta’kidladi. Shuni inobatga olgan holda 1987 yilda BMT ning atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha komissiyasi texnogen o‘shishning alternativi sifatida “barqaror rivojlanish” konsepsiyasini ishlab chiqdi.

– jamiyatning faoliyat yuritishi va farovonligini belgilaydigan qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda fuqarolik jamiyatining keng ishtirok etishi;

– barqaror iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishning keng miqyosli modellari hamda demografik jihatining iqtisodiy strategiyalar va rivojlanish strategiyalariga integratsiyasi natijasida barqaror rivojlanish va qashshoqlikni yo‘q qilish sur‘atlarini tezlashtiradi hamda demografik maqsadlarga erishish va aholining turmush darajasi oshishiga ko‘maklashadi;

– o‘shish bilan bog‘liq manfaatlarni turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida adolatli va kamsitishsiz taqsimlash hamda qashshoqlikda yashayotgan insonlar oziq-ovkat resurslaridan foydalanishini kengaytirish; – insonlar barqaror rivojlanishiga mo‘ljallangan kontekstda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va saqlab qolish.

2015 yil sentabrida jahon yetakchilari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbarligi ostida qabul qilingan 2030 yilga qadar barqaror rivojlanish sohasida kun tartibi kuchga kirdi. Yangi kun tartibi – bu mamlakatlarni barqaror rivojlanishning 17 maqsadiga erishish ustidan ishni boshlashga chaqirishdir. Ushbu muammolarni hal qilish borasida, O‘zbekiston Respublikasi 2015 yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030 yilgacha mo‘ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror rivojlanish dasturini qo‘llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning uchta sohalari (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bo‘yicha kompleks ishlarni olib borishini ma’lum qildi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrda “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarorida[2] belgilangan chora-tadbirlar rejasi ham ahamiyatlidir. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-sonli qaroriga 1-ilovada 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar va yo‘l



xaritasi ishlab chiqilgan. Mazkur Maqsad va vazifalarning tartib raqamlari 2015 yil sentabr oyida BMT sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish global maqsadlari tartib raqamlariga to'la mos keladi.

Shu o'rinda "Biz iste'mol qiladigan maxsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyora hayot bag'ishlovchi iqlim – barchasi tabiat tuhfası, ustiga-ustak, hozir tabiatning o'zi bizga belgi bermoqda, o'z haqimızda qayg'urish uchun avvalo tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Hozirgi uyg'onish davri. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni ko'tarish uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish vaqti. Bu xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni – tabiat vaqtidir", deyiladi Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish – 2020 kun tartibida.[3, 388]

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardagi 4.7-vazifa sifatida "2030 yilgacha barcha o'quvchilar va talabalarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash"da Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mas'ul ijrochilar etib belgilangan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida "Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri-global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda... Biz xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi umumiy xatarlarga qarshi yangicha yondashuvlar asosida va yaqin hamkorlikda ishlashimiz zarur", deb ta'kidladilar.<sup>42</sup>

Tadqiqotchi Savlabek Kistaubayev fikricha, ekologik ta'lim-tarbiya-inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining salbiy oqibatlarini bartaraf etib, "tabiat-jamiyat-inson" majmuasi koevoyutsiyasi va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga, insonning tabiat boyliklariga ongli munosabatini, tabiiy atrof-muhit muhofazasiga nisbatan mas'uliyatini shakllantirishda muqobili bo'lmagan yo'ldir.

<sup>42</sup> Kistaubayev S.U. Shaxs ekologik dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlarining roli // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. - B. 15.



Natijada insoniyat kelajagi “tabiat-jamiyat” aloqadorligidagi bir butun sotsial-ekosistema sifatida biosfera taraqqiyotining zaruriy bosqichi noosferaga ehtiyoj sezmoqda.

Tadqiqotchi M.Y.Shishin fikricha, noosfera sintetik tushuncha sifatida inson faoliyati natijalarini, jumladan moddiy va ma’naviy yutuqlarni ham o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, bu tushuncha inson va atrof muhitning munosabatlari tizimini nafaqat planetar darajada balki kosmik darajada ifodalaydi. Shu sababli bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, shallanib borayotgan yangi ilmiy falsafiy paradigmaning asosida aynan noosfera g‘oyasi joy olishi maqsadga muvofiqdir.<sup>43</sup>

Noosfera konsepsiyasi doirasida ifodalangan Noosferaviy-ekologik faoliyatning mazmun-mohiyatini tahlil etish va uning strukturasi aniqlashtirish tadqiqotimiz doirasidagi ham nazariy, ham amaliy ishlardan biridir.

Fan taraqqiyoti, uning kategorial apparati, konseptual sxemalari, konkret modellari bilish imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ijodiy tafakkur salohiyatining ortib borishiga, “Tahlilning yangi nochiziqli metodlarini yaratishga nisbatan o‘ziga xos talablar qo‘yadi”. Falsafa va fan tarixida noosfera konsepsiyasining metodologik ahamiyati Noosferaviy-ekologik faoliyatni tashkil etishi bilan belgilanadi.

Avvalo, noosfera nazariya sifatida ilmiy bilimning eng yetuk shakli bo‘lib, borliq jabhalarining qonuniy va muhim bog‘lanishlarini yaxlit holda o‘zida aks ettiradi. Noosfera konsepsiya sifatida noosferaviy bilimlar taraqqiyotining yo‘nalishi va maqsadini ifodalaydi. Noosfera konsepsiyasining nazariy-metodologik tahlilida mazkur konsepsiyaning nazariy-fundamental asoslari, nazariy tushunchalari va tamoyillari hamda ontologik, gnoseologik va mantiqiy jihatlari ahamiyatli.

Falsafa va fanda noosferogenez, M.Y.Shishinning fikriga ko‘ra, nochiziqli jarayondir. U vaqt va makonda pulsi xarakter kasb etadi. Buni “ko‘z bilan ko‘rish mumkin” bo‘lgan antropogenez, etnogenez hamda madaniyatda kuzatish mumkin. Bu liniyalarning pulsi xarakteri tabiiy antropogen, moddiy va energetik oqimlarning kompleks ta’sirlari bilan bog‘liqdir. Bu yerda inson yaratgan moddiy strukturalar va

<sup>43</sup>Шишин М.Ю. Онтологические и методологические основания концепции ноосферогенеза. 09.00.01. - Москва, 1997. –С. 3.





inson fikrlarining o'ziga xos salbiy va ijobiy ta'sir etishi haqidagi gipoteza e'tiborga loyiqdir<sup>44</sup>.

Noosfera konsepsiyasining obyektiv va subyektiv ontologiyasini quyidagicha tahlil qilish mumkin: Falsafa fanlari doktori I.Hoshimova fikricha, jamiyat esa tabiatga antropogen ta'sir etadi. Bu jamiyat tomonidan tabiatni o'zgartirish, global obyektlarni o'zlashtirish, ya'ni, insonning tabiatni qayta o'zlashtirishdagi kompleks muammolarini o'z ichiga oladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida jamiyat va tabiat munosabatlari tobora chuqurlashib, murakkablashib borgan sari tabiatga ta'sir ortib boradi. Jamiyat o'z ta'siri bilan tabiatni o'zgartiradi, bu jarayon moddiy ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish orqali, ya'ni, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, ifloslantirish va uni muhofaza qilish jarayonida sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti uning tabiat bilan o'zaro munosabatining kengayishi orqaligina sodir bo'ladi.<sup>45</sup>

Shu jihatdan ekologiyada tolerantlik, korrelyatsiya, transformatsiya, noosfera, ratsionallik kabi tushunchalarning mohiyatini yoritilishi ekologiya sohasida bilimni boyitadi. Bioxilma-xillikning falsafiy tahlili ekologiya muammolarini anglashga, yechimiga yordam beradi.<sup>46</sup>

Insoniyat XXI asrda informatsion sivilitsiya bosqichiga qadam qo'ydi. Informatsion jamiyat bosqichi axborot va kompyuter inqilobi kabi omillar asosida axborotning tovar mahsulotga aylanishi, jamiyatda kompyuter sohasida muhandis-texnik ziyolilar qatlaminin vujudga kelishi, kompyuterlashtirish jarayonining ishlab chiqarish kuchiga aylanishi, internet tarmoqlarining ijtimoiy turmush tarziga tobora singib borishi bilan xarakterlanadi. Globallashuv sharoitida jamiyat axborotlashuv jarayonining imkoniyati tezlashdi va kengayib boradi.

Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari uning faoliyati ham ko'proq texnologiyalarga asoslanib boradi. Hozirgi davrda inson faoliyatining deyarli barcha sohasi texnologiyalarga asoslangandir. Texnologiya turli xil ijtimoiy munosabat va

<sup>44</sup>Шишин, Михаил Юрьевич. Онтологические и методологические основания концепции ноосферогенеза. Дисс. Канд. филос наук : 09.00.01. / Москва, 1997. – С. 15.

<sup>45</sup>Xoshimova I.S. Ekologiya falsafasi asoslari // Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari: Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. –T., "MUMTOZ SO'Z", 2016. –B. 27.

<sup>46</sup>Хошимова И.С. Философский анализ биоразнообразия // Материалы семинара: Проблема биоразнообразия и изменения климата. –Т., 2010.



faoliyat strukturasi ta'sir etib turmush tarzining yangilanish (modernizatsiya) va o'zgarishlarning asosiy omili bo'lmoqda. Bu texnologiyaning jamiyatga, ijtimoiy munosabatlar tizimiga nisbatan sotsiogen funksiyasini tashkil etadi<sup>47</sup>.

Kompyuter inqilobi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotga, madaniy, kognitiv va sivilizatsiyaviy jarayonlarga ta'sir etadi. Informatsion texnologiyalar insoniyat turmush tarzini o'zgartirib yubormoqda. Buni informatsion texnologiyalarning sotsiogen funksiyasida yaqqol ko'rish mumkin.

Shu bilan birga jamiyat va uni tashkil etgan qatlam va guruhlar turli xil obrazlarda texnika va texnologiyalarga ta'sir ko'rsatadi, uni o'zgartiradi, rag'barlantiradi, hatto destruktiv ta'sir etish ham mumkin. Bu jamiyatning texnologiyalarga nisbatan texnogen funksiyasini tashkil etadi.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy tarixiy taraqqiyotida sotsiogen va texnogen funksiyalarning mutanosibliigi ko'p jihatdan ekologik omillarga bog'liq. Kompyuter inqilobi va kishilik jamiyatining informatsion sivilizatsiya bosqichiga o'tishi, texnologiyalarning sotsiogen funksiyasi ekologik muammolarni yanada chuqurlashtiradi, ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi degan pessimistik qarashlar o'tgan asrning 80-90 yillarida keng tarqalgan edi. Shu munosabat bilan yekologik inqirozning chuqurlashuvi muqarrar ravishda jahon hamjamiyati barcha sa'y-harakatlarni mustahkamlab, global, barqaror eko-rivojlanishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rish orqali tabiiy muhit bilan o'zaro hamkorlik tamoyillarini tubdan o'zgartirishi lozimligini ko'rsatmoqda.<sup>48</sup> Ilmiy texnik inqilobning ijtimoiy oqibatlariga nisbatan antissiyentistik qarashlar bunga misoldir. BMT tashkilotining barqaror rivojlanish shartlari etib quyidagi formula asos qilib olingan.<sup>49</sup> "Ijtimoiy taraqqiyot + iqtisodiy o'sish + ekologik xavfsizlik = barqaror rivojlanish" g'oyasini misol qilib olish mumkin. Lekin, bu formula to'la ijtimoiy-tabiiy voqelikni to'la qamrab olmagan deb hisoblaymiz. Ya'ni, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlik barqaror rivojlanish tom ma'noda asosi bo'la olmaydi. Jamiyatda

<sup>47</sup> Ракитов А.И. Философия компьютерной революции. М.: изд. Политическая литература. 1991, с-15

<sup>48</sup> Бердимуратова А.К. Философско-методологические проблемы современной экологической ситуации (на материалах Приарала) // Спец. 09.00.01. Диалектика и теория познания. Дисс-я на соискан. уч. степени док. фил. наук. –Тошкент, 1999. –С. 5.

<sup>49</sup> Декларация тысячелетия ООН // Московский журнал международного права, 2001, №1. -С. 257-269; Йоханнесбургская декларация по устойчивому развитию // Вестник экологического образования в России, 2002, № 4. С. 5-6.





noosferaviy-ma'naviy yuksalish mezoni qaror topmas ekan barqaror rivojlanish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun biz tadqiqot doiramizda "Ijtimoiy taraqqiyot + iqtisodiy o'sish + ekologik xavfsizlik+noosferaviy-ma'naviy yuksalish = barqaror rivojlanish" g'oyasini taklif qilamiz.

Buning uchun texnogen va sotsiogen omillarni ratsional tafakkur tarzida oqilonalik muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat buni yaxshi anglaydi va ko'plab pessimistik qarashlarning asossizligini ko'rsatdi. Jumladan, "Insonning tabiatga antropotexnogen ta'siri kuchayishi keyingi 50 yil mobaynida 25-50 foiz biologik turlarning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi degan xulosalarning asosi yo'q. Aksincha, nari borganda ularning 0,7 foizigina kelajakda yo'qolib ketishi mumkin"<sup>50</sup>. Maltusning nazariyasi yoki "demografik portlash" haqidagi qarashlar ham asossiz ekanligi ayon bo'lmoqda. Bundan tashqari Rim klubi tomonidan "Taraqqiyot chegarasi" deb ilgari surilgan bashoratlar ham asossiz ekaneligi ma'lum bo'lmoqda.

Mustaqil respublikamizda tabiat-jamiyat tizimida texnogen va sotsiogen funksiyalarni mutanosibligini ta'minlashga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Respublikamizda atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Prezidentimiz ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari sifatida 6 ta ustivor tadbirlarni ko'rsatib o'tgan. 2010 yil 21 sentabrda BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida Prezidentimiz I.A.Karimov ekologiyani muhofaza qilish, orol fojeasi haqida to'xtalib o'tdi.

Texnogen va sotsiogen ta'sirlarda ekologik vazifalar va omillar ratsional tafakkur tarzida mushohada etib ularga oqilona yondashish hozirgi informatsion sivilizatsiyaning asosiy xususiyatidir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida jamiyat va tabiat munosabatlari chuqurlashib, murakkablashib borgan sari tabiatga ta'sir ortib bormoqda. Zotan, «Hozir 21 asr busag'asida, fan texnika taraqqiyoti jadal tezliklar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning geografik siyosiy tizimi o'zgarmoqda. Bunday sharoitta inson tomonidan biosferaga kursatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay

<sup>50</sup> Mamashakirov. S. Vahimami yoki haqiqat. -Toshkent, "Iqtisod-moliya" 2012. –B. 42-43.





tabiiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta‘sirini muvofiqlashtirish, inson va tabiyatning o‘zaro munosabatlarida muozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bulib qalmoqda».<sup>51</sup>

Albatta, inson talablarini qondirishning manbaii – tabiat. Tabiatning resurslarini o‘z maqsadlari uchun foydalanadi. Ammo, Ona tabiatdan faqatgina «olmoq» ustanovkasi sifatida munosabat qilish maqsadga muvofiq emas. Bunday munosabatni mutlaqlashtirish oqibatida inson tabiat bilan ayanichli xayrlashadi. Mazkur antropotsentirik nazariya Sobiq shurolar davrida inson faoliyatida huqimronlik qildi.

Fan va texnikaning rivojlanishi va inson ehtiyojlarini oshib borishi atrof-muhitni o‘nglab bo‘lmas darajada o‘zgartirib yubormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, oxirgi 50 yilda neft, gaz, ko‘mir, alyuminiy, temir va boshqa zaxiralardan foydalanish bir necha o‘n, yog‘ochdan foydalanish esa 14 barobarga ko‘paymoqda. Keyingi yillarda quruqlikdagi yerlarning o‘zlashtirilishi natijasida sayyoramizda ekologik muvozanatning buzilishi, suv rejimining o‘zgarishi kabi salbiy oqibatlarga olib keldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, har yili yer yuzidan 13 million gektar o‘rmon yerlari yo‘qolib bormoqda. Cho‘llanish dunyoning qurg‘oqchil hududlaridagi yerlarni o‘z domiga tortmoqda. Bunday antropogen ta‘sirning haddan ziyod oshishi atmosfera, okean, dengiz va daryolar, tuproq, o‘rmon ekotizimlarini izdan chiqaruvchi global xavf-xatarlarning kuchayishiga olib keladi. Bularning barchasi atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu, bevosita global miqyosda keskinlashib ketayotgan ekologik muammolar doirasida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda va ularning lokal, zonal, regional sabablarini aniqlashni hamda bartaraf qilishning konstruktiv-ratsional usullarini topishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Demak, Noosferaviy-ekologik ta‘lim berishning antropotsentristik paradigmasi mohiyati – bu inson eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilib, tabiat esa uning shaxsiy mulki sifatida inson va tabiyat qarama-qarshi quyilib, insonning tabiyatga ta‘siri faqat pragmatik xarakterga ega. Kelajakning ulkan poydevori qurilayotgan hozirgi davrda ko‘plab sohalar qatori ilm-fan ham muhim vazifalarni bajarishi darkor. Ma’lumki,

<sup>51</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid barqarorlik shartlar va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1998.



ko'pchilik fan yutuqlarining yaxshilikka, ezgu g'oyalarga xizmat qilishiga o'rganib qolgan. Ammo, hamma vaqt ham shunday bo'laveradimi? Fanning u yoki bu sohasida nihoyatda chuqurlashib boraverish, qo'lga kiritilgan yutuqlarni mutloqlashtirish odamzotning tabiiy imkoniyatlari va haq-huquqlarini paymol qilishga olib kelmaydimi? Bu borada insonning o'zini o'rganuvchi fanlar sohasidagi izlanishlarning chegarasi bormi?, kabi masalalar bugungi kunning dolzarb muammolariga aylanib bormoqda. Ana shunday ko'plab baxs-munozaralarga sabab bo'layotgan fan sohalaridan biri irsiy injeneriyadir.<sup>52</sup>

Zamonaviy ilm-fan va madaniyatlar asosiy yo'nalishlar orasida noosfera tushunchasini o'rganish, uning shakllanishi va shakllanishi muhim o'rin tutadi. Biosferani Noosferaga bosqichma-bosqich amalga oshirish, uni kelishi bilan jamiyatda fan va texnologiyalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib shuni ta'kidlash o'rinliki, oliy ta'limda Barqaror rivojlanish bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishimiz dolzarb bo'lib qolmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isadjanov A. Barqaror rivojlanish maqsadlari: ustuvor yo'nalishlari va dolzarb vazifalari// Ilmiy tahliliy axborot, 2018, №1. –B. 96-97.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrda "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020 y., 09/20/777/1620-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston", 2021. -B. 388.
4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi// Yangi O'zbekiston, № 183 (183), 2020 yil 24 sentabr, payshanba soni.
5. Navoiy A. Hikmatlar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. -1968. –B. 62.
6. Ibrohimov A. O'zbek mahallasi. "Ma'naviyat", 2007, B-28

<sup>52</sup> Nazarov N.N. Irsiy injeneriya axloqiy muammolarning falsafiy tahlili. 09.00.05. T., 2008. –B. 3.



7. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 210-215.
8. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.
9. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРҒИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).
10. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.
11. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли ХХ АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).
12. Ruziboev Dilshod A’Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).
13. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.
14. Буриев, И. И., & Мамасалиев, М. М. (2020). ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).
15. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА ФАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32).